



## O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA KOMPYUTER FANLARI BO'YICHA FAKULTATIV KURSLARNI TASHKIL ETISH MASALALARI

---

*Xolmirzayev Ilxom Shavkatovich  
Jo'raev Anvar Mustaqul o'g'li  
Narmetov Ibrohim Rustamjon o'g'li  
Zangiota tuman 22-maktab o'qituvchilari*

**Annotatsiya.** O'quvchilarning informatikadan fakultativ kurslarda kasb tanlashlari uchun katta imkoniyatlar yaratilishi axborot texnologiyalarining didaktik salohiyatini oshiradi va informatikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligiga asos bo'ladi.

Maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda kompyuter fanlari bo'yicha fakultativ kurslarni tashkil etish, axborot texnologiyalari va vositalaridan foydalanib turli sohalardagi kasbiy faoliyat haqida ko'nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Kurs, mashg'ulot, faoliyat, topshiriq, qiziqish, moyillik, tamoyil, tahlil.

**Abstract.** The creation of great opportunities for students to choose a career in informatics in optional courses increases the didactic potential of information technologies and forms the basis for the connection of informatics with other disciplines.

In the article, the issues of organizing optional courses in computer science, forming skills about professional activity in various fields using information technologies and tools are highlighted in the career orientation of students.

**Keywords.** Course, training, activity, assignment, interest, inclination, principle, analysis.

**Абстрактный.** Создание для студентов больших возможностей выбора карьеры в области информатики на факультативных курсах повышает дидактический потенциал информационных технологий и формирует основу для связи информатики с другими дисциплинами.

В статье освещены вопросы организации факультативных курсов по информатике, формирования навыков профессиональной деятельности в различных сферах с использованием информационных технологий и средств профориентации студентов.



**Ключевые слова.** Курс, обучение, деятельность, задание, интерес, склонность, принцип, анализ.

Jahon axborotlashtirish tuzilmasining yaratilishi, axborotning iqtisodiy kategoriyaga aylanishi, turli axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonamizning xarakterli xususiyatlari hisoblanadi. Axborot faoliyati va axborot texnologiyalari kasbiy faoliyatning deyarli barcha turlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat boyligi ko'p jihatdan to'plangan axborot resurslari bilan belgilanadi. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, eng rivojlangan mamlakatlar band aholisining yarmidan ko'pi bevosita axborot ishlab chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanadi, bir qator mamlakatlarda esa milliy mahsulotning yarmigacha bo'lgan qismi jamiyatning axborot faoliyati bilan bog'liq.

Informatika o'qitish metodikasi fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan, O'zbekistonda esa 1985 yildan boshlab shakllana boshlagan. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki hozirgi kunda mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta'limga bo'lgan e'tibor kun sayin oshib bormoqda. Ixtisoslashtirilgan ta'lim sharoitida maktabdagi o'quv jarayonlarining sifatini oshirish bilan bir qatorda yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha informatikadan fakul'tativ kurslarni tashkil etish uzviylikni taminlashning bir omili sifatida qarash mumkin. Informatika o'qitish metodikasi bo'yicha birinchilardan bo'lib M.Aripov [2], B.Begalov [3] va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu borada muayyan yutuqlarga erishilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida kasbga yo'naltirish bo'yicha informatikadan fakul'tativ kurslari alohida o'rin tutadi chunki hozirgi kunda yoshlarimizning hayotida informatika va axborot texnologiyalarining tutgan o'rni beqiyos bo'lib bu yo'nalishga tanlayotgan o'quvchilarning soni kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa informatikadan fakul'tativ kurslarni tashkil etishda zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishni, informatikaning turli xil metodlari va vositalaridan o'quvchilarning qiziqadigan sohalar bo'yicha savodxonligini oshirish, ijtimoiy moslashuvchanlik hamda harakatchanlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risid"gi PQ-4851-sonli qaroriga muvofiq, o'tgan yillar davomida ixtisoslashtirilgan tayanch maktablari tashkil etilib, ular zamon talabiga mos ravishda jihozlanib tizimdagi korxonalar va tashkilotlarga birlashtirilganligi bu sohada samaradorlikni yanada oshirmoqda [1].



Qisqa qilib aytganda, besh tashabbus doirasida aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari hamda internetdan samarali foydalanishni tashkil etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, yetuk kadr sifatida voyaga yetkazish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Zero, ta'lim darajasi va uning sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari sharoitida ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida zamonaviy ixtisoslashtirilgan ta'limda sifat ko'rsatkichini ko'tarish bilan bir qatorda yuqori sinf o'quvchilarining kasb tanlashlariga yo'naltirilgan informatikadan fakultativ kurs mashg'ulotlarida o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi tahlil qilishini shakllantirish masalasi va shu asnoda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir.

Ta'lim tizimini isloh qilishning barcha asosiy yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadigan mexanizm uni axborotlashtirish bo'lib, u butun mamlakatni axborotlashtirishning zaruriy sharti va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining sanoat bosqichidan axborot bosqichiga o'tish uchun asos yangi axborot texnologiyalari hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish yangi axborot texnologiyalarining quyidagi asosiy afzalliklaridan samarali foydalanish imkonini beradi:

- har bir shaxsga o'z ta'lim traektoriyasini ta'minlaydigan ochiq ta'lim tizimini qurish imkoniyati;

- bilish jarayonini tizimli tafakkurga o'tkazish orqali uni tashkil etishni tubdan o'zgartirish;

- ta'limni axborot-metodik ta'minlashning samarali boshqaruv tizimini yaratish;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish;

- kompyuterning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish, ulardan eng muhimi: bilish jarayonini tashkil etish imkoniyati, o'quv jarayoniga faol yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi, ta'lim jarayonini individuallashtirish va undan yangi kognitiv vositalaridan foydalanish hamda uni tubdan tashkil etish imkoniyati.

Yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlashni shakllantirishga qaratilgan informatikadan fakultativ kurslarda ilmiy va amaliy faoliyat jarayonida amalga oshiriladi, bu kasbiy yo'nalish deb ataladi. Kasbga yo'naltirilganlik deganda esa shaxsni erkin va mustaqil tarzda kasb tanlashga tayyorlash ilmiy asoslangan sistemasi tushuniladi. Kasb tanlashlarining shakllanishi oqibatida kelajakdagi bo'lajak kasbini mustaqil, mas'uliyat bilan, real va ongli ravishda tanlashi zarur.



Ularga kasbni to'g'ri tanlashda yaqindan yordam berish, ularning kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan:

- O'zlari haqida, bilim va ko'nikmaga egaligini his etishi ("men" obrazi);
- Kasbiy dunyosi haqida ma'lumotlarni tahlil qilishi (kasbiy faoliyat tahlili);
- O'zi haqida va kasbiy dunyosi bilimlarining o'zaro bog'liqligi (kasbiy test).

Ushbu komponentlar ularda kasb tanlash bosqichidagi eng muhim omillardan biri bo'lib – bu o'zlarini mustaqil rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bunda qiziqishlarining yetarli darajada barqarorlashishiga, ijodiy salohiyatining oshishiga, qobiliyatlarini yanada anglashishiga olib keladi. Natijada ular bilim va shaxsiy imkoniyatlarini to'g'ri baholashga, jamiyat hayoti va kasbiy faoliyatda o'z o'rnini topishga intiladilar. O'quvchilarga yo'naltirilgan kasbiy ta'limning asosiy vazifasi – ularning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasb tanlashlarini shakllantirishi uchun zaruriy shart sharoitlar yaratishdan iborat [5].

Informatikadan fakultativ kurslarda kasbga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash – bu mashg'ulotlar jarayonida o'zini o'zi idora qilishi, jamiyatdagi dolzarb masalalarga fikrini bildira olishi, tanlagan kasbini idrok qila olishi, individual iste'dodlarini namoyon qila olishi va jamiyatda ijtimoiy jihatdan samarali yo'llarni ko'ra olishi demakdir. Fakultativ kurs mashg'ulotlarida ularni kasbga yo'naltirish quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Har bir yuqori sinf o'quvchisining shaxsiy rivojlanish jarayonini muntazam kuzatish. Tizimli monitoring diagnostikasi natijalarini baholash va rivojlanish ko'rsatkichlari nazoratini olib borish, natijalarni rag'batlantirib borish.

2. Mashg'ulotlar. Interfaol o'quv vositalaridan samarali foydalanish, o'quvchilarning qatnashishi ikki bosqichga asoslanishi lozim, bular oddiy va ilg'or. Axloqiy xulq atvoriga e'tiborli bo'lish, kompyuter va internet tarmoqlaridan oqilona foydalanish, axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish.

3. Uyga vazifa. O'tilgan materiallarni takrorlash, mustahkamlash, qo'shimcha materiallar bilan mustaqil ishlash.

4. Qo'shimcha materiallar bilan ishlashni shakllantirish, turli xil kasb faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkazish, ekskursiya va sayyohatlar uyushtirish.

5. Mehnat faoliyatiga tayyorligi, zamonaviy ilmiy-texnikaviy usul va vositalardan unumli foydalangan holda ko'nikma hosil qilish.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarda kasb tanlashlariga yo'naltirilgan yondashuvi deganda – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sistemasi bo'lib, u o'quvchilarda kasb tanlashlarini shakllantirish uchun maqbul



shart sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'quvchiga nisbatan yaxlit bir shaxs sifatida qarashi, o'zini anglaydigan, o'zini o'zi rivojlantirishning ma'suliyatli sub'ekti sifatida izchil munosabatda bo'lishi va qobiliyatini namoyon qila bilishi nazarda tutiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining kasb tanlashlariga yo'naltirilgan yondashuvlar jarayonida amalga oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur;

- Fakultativ mashg'ulot va qo'shimcha materiallar;
- Kasbiy faoliyatga doir materillar;
- Tashkiliy va amaliy topshiriqlar;
- O'quvchilarning xususiyatlari, qiziqish va moyilliklari;
- Professionallarning tashrifi;
- Nazariy qoida va tamoyillar tahlili.

O'quvchilarda kasb tanlashlarini shakllantirish mashg'ulotlarida kasbiy faoliyat motivlarini shakllantirishi [5], uning istiqbollarni to'g'ri talqin qilishi lozim. Bunda o'quvchilari yuqori sinfga kelganida, qiziqishlarining barqarorlashishiga erishadi, ijodiy salohiyati oshadi, o'zini o'zi faol idrok etish istagi yuksaladi, o'zining bilim va shaxsiy imkoniyatlarini ob'ektiv baholashga intiladi hamda o'z hatti harakatini ongli ravishda boshqara boshlaydi. Pedagogik nazariya va amaliyot tahliliga asoslanib, o'quvchilarni kasb tanlashlarini shakllantirish, shaxsiyatning barcha quyi tuzilmalarini safarbar qilishni talab qiladigan murakkab, uzoq davom etadigan ko'p bosqichli jarayon sifatida (kognitiv, motivatsion, irodaviy) qaraladi, shu bilan birga tizimni tashkil etuvchi omil sifatida ham ko'rish mumkin bo'lgan faoliyatdir.

Yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda informatikadan fakultativ kurs mashg'ulotlarining mazmun mohiyati nuqtai nazaridan olganda quyidagi ko'rsatmalarni amalga oshirish zarur:

- Dasturlarning turli versiyalari, darslik va didaktik materiallar, kursdagilarning yagona asosiy tarkibini shakllantirish, mashg'ulotlarni individuallashtirish;

- O'quvchilarda kasbiy faoliyatni shakllantirish, ularda xususiy kasbiy fazilatlarini rivojlantirish, o'zlariga xos xususiyatlarni namoyon qilish ko'nikmalarini hosil qilish, kasbni o'zlari mustaqil tanlashlari uchun shart sharoit yaratish maqsadida guruh va individual mashg'ulotlarning turli shakllari;

- Ularning mashg'ulotlardagi uslublarni va natijalarni tahlil qila olishi hamda baholash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z ishini tashkil qilish jarayonini anglay bilishi, faoliyatni qanday tashkil etganliklarining tahlili (ular qanday usullardan foydalanganliklari, qanday qo'llaganliklari va boshqalar);



- O'quvchilarda o'zlariga biriktirilgan vazifalarni uzluksiz va tizimli ravishda bajarish ko'nikmalarini shakllantirish;

- Ularga berilgan vazifalarni bajarishdagi o'z ish uslublarining tahlili, tengdoshlarining hatti harakatlari bilan taqqoslash va o'z fikrlarini bayon etishlarini rivojlantirish;

- Ularning tarbiyaviy ish uslublarini rivojlantirish va takomillashtirish;

- O'quvchilarda kasbiy fazilatlarini namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- Ularda ijtimoiy muhitda kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan mustaqil ravishda oqilona chiqib ketish ko'nikmalarini shakllantirish.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, kasb tanlashga yo'naltirilgan fakul'tativ kurs mashg'ulotlarining maqsadi har bir yuqori sinf o'quvchisining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qiziqishlarini, hohish istaklarini, qobiliyatlarini aniqlashtirish va kasb tanlashlariga imkoniyat yaratishdir. Maktabdagi o'quvchilarning hammasi bir xil bo'lmaydi, bu ularning notekis rivojlanishi bilan bog'liq, ularning genetik va ijtimoiy jihatdan holatlarini aniqlash, har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning o'zlariga xoc xususiyatlarini hisobga olgan holda salomatligiga hamda aqliy rivojlanishiga e'tiborli bo'lishni talab etadi. O'quvchilarning informatikadan fakul'tativ kurslarda kasb tanlashlari uchun katta imkoniyatlar yaratish lozim, bu birinchidan mashg'ulotlar jarayonini tizimli ravishda olib borilganda axborot texnologiyalarining didaktik salohiyatini oshiradi, ikkinchidan informatikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi asos qilib olinadi, uchinchidan esa axborot texnologiyalari va vositalaridan foydalanib turli sohalardagi kasbiy faoliyat haqida ko'nikmalarni shakllantirish yengil kechadi. Maktabda informatikadan fakul'tativ kurslarda yuqori sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda quyidagi ko'rsatmalarga alohida e'tiborli bo'lish zarur:

- Maktabda fakul'tativ kurs mashg'ulotlari manzilli, mazmunli, yo'naltirilgan, uzluksiz va tizimli shuningdek barqaror bo'lishi;

- O'quvchilarda axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda o'z qiziqishlarini, hohish istaklarini, qobiliyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb tanlashlari;

- Mashg'ulotlar bo'yicha o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi;

- O'quvchilarda mashg'ulot mavzulariga bo'lgan munosabati;

- Ularda tanlagan kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati;

- O'quvchilarda kasbiy rivojlanishga bo'lgan munosabati.





### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida. 06.10.2020 yil. PQ-4851-son.
2. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. –Toshkent: Universitet, 2000. – 132 b.
3. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalarini ekonometrik modellashtirish: Iqt. fanl. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2001. – 36 b.
4. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.:FAN. 2004. 120 b.
5. Ne'matov Sh.E., Tohirov O'.O., Yadgarova G.T., Tashbaev N. “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari”. – Toshkent: O'zPFITI bosmaxonasi, 2015. – 152 bet.